

## QOQON XONLIGI SOLIQ VA MAJBURYATLARI

Aminjonova Durdoni Solijon qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti  
tarix fakulteti 4 bosqich talabasi

### Anatatsiya

Ushbu tezisda Qoqon xonligi aholisi ishtimoiy hayoti davlatdagi soliqlar tizimi, aholiga yukalangan turli majburiyatlar kundalik va yaylovlardan foydalanganligi uchun soliqlar xonlarning aholiga nisbatan shavqatsiz majburiyatlari va oddiy aholi uchun qiyin turmush tarzini bilishimiz mumkin. Xudayorxon davrida joriy qilingan soliq va majburiyatlar haqida turli malumotlar mavjud.

**Kalit soʻzlar:** Qoʻqon xonligi, Tanho, zakot, hashar, xiroj, ushr, soliq, chorvador, majburiyat, dehqonchilik, xonlik, beklilik, olpon.

Qoʻqon xonligida ham davlat xazinasi uchun, mamlakatning ehtiyoji uchun soliq undirish tizimi shakllantirilgan edi. Buxoro va Xiva xonliklariga nisbatan Qoʻqon xonligida soliqlarning turi koʻproq boʻlgan. Mollar va hayvonlardan olinadigan, toʻylardan olinadigan soliq, meroslarni boʻlishda tushadigan soliq, doʻkonlar, karvonsaroylar, omborxonalaridan olinadigan soliq, daryo kechuvlaridan oʻtish soligʻi, tuz soligʻi va hokazo.<sup>1</sup> Xonlikda yer va suv hukmron tabaqalariniki hisoblanib, yerga egalik qilishning toʻrtta turi mavjud boʻlib ular quyidagilar edi: 1. Xiroj yerlar – yer egalarining xususiy yerlari. 2. Davlat yoki amloq yerlari – xonga qarashli yerlar – oʻrmonlar, toʻqaylar, yoʻlu koʻpriklar. 3. Xususiy yerlar – xonning maxsus farmoyishi bilan yirik amaldorlarga berilgan yerlar (suyurgʻol). 4. Vaqf yerlari – diniy muassalar, yaʼni, masjid, madrasa va mozorlarga qarashli yerlar edi.<sup>2</sup> Xonlikda soliqning miqdori xonning ixtiyori bilan tez oʻzgarib turgan. Ayniqsa, harbiy harakatlar paytida soliqlarning turi va miqdori yanada koʻpaygan. Oʻzbek xonliklarida soliq yigʻishda beklilarning xizmati katta boʻlgan. Jumladan, Buxoro amirlariga qarashli boʻlgan Chiroqchi bekligida avorizot (favqulodda holatlarda yigʻiladigan harbiy soliq), qoracherik (Buxoro amirligi qoʻshinlarini boqish uchun beriladigan soliq), yaksara (qoʻsh puli; qoʻsh hoʻkizi borlardan yigʻilgan), choʻp puli, xarbut puli (lalmikor yerlarga ekiladigan tarvuzlardan olingan), muhrona (qozi,

<sup>1</sup> <https://azkurs.org/reja-kirish-qoqon-xonligining-tashkil-topishi.html?page=4>

<sup>2</sup> OʻZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA 12-SON ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI  
19.10.2022 1114 “QOʻQON XONLIGIDA SOLIQ VA MAJBURIYATLAR” Xamidov Shukurullo Muqimjon oʻgʻli



mufti, rais va boshqa hukmdorlarning muhri uchun soliq), xizmatona (qozilarga, beklarga berilgan to'lov) vasiqa puli va boshqa soliq turlari ham bo'lgan.

**Soliq va majburiyatlari.** Asosiy soliq – xiroj bo'lib, uning miqdori ekin ekiladigan yer maydoni va ekin turiga qarab hosilning 1/3-1/5 qismigacha belgilanar edi. Ko'chmanchi chorvadorlardan olinadigan zakotning turlari ko'p edi. Ularning asosiylari „q o 'ra b o sh i, tu tu n haqi“, „yig'im soliq“ deb atalar edi. „Qo'raboshi“ – ko'chmanchi chorvadorlardan mol boshiga va qo' - rasiga qarab olinadigan zakot. Bu zakot qishda mollar qo'ralarda turganida yig'ib olingan. „Tutun haqi“ — bahor kelganda yangi o'tloqlarga ko'chishdan oldin xonadon boshiga bittadan qo'y bilan olinadigan soliq (zakot). „Yig'im soliq“ esa zakot to'lamaydigan toifalarning bekka beradigan 9 buyumdan iborat iTomlari yig'imi bo'lgan. Mehnatkash xalq deyarli hamma narsa uchun soliq to'lar edi. Chunki hamma qo'riq yerlar, chakalakzorlar, to'qaylar, daraxtzorlar, ko'llar va barcha yaylovlar xonning ixtiyorida edi. Aholi qal'a devorlarini ta'mirlash, istehkomlar qurish, kanallar qazish, ariqlarni tozalash va yot qurilishida ishtirok etish kabi majburiyatlarni o'tagan. Qo'qon xonligi uchun soliq va majburiyatlarini oldindan to'lash yoki sotib olish xarakterli hisoblanadi. Shuningdek, yerga nisbatan xususiy mulkchilikning kengayganligini kuzatish mumkin. Xon ham o'z yerlarini kengaytirishga harakat qilib buni nafaqat o'zlashtirilgan yerlar hisobiga, balki daryolar va ko'llar bo'yida joylashgan qo'riq yerlar hisobiga ham ko'paytirishga harakat qilganligiga guvoh bo'lamiz. Xon qo'riq yerlarda ham unumli foydalanishga harakat qilar ekan, ularni aholiga “qo'riq” yerlar sifatida mol boqish, o'tib tayyorlash va qamish g'amlash uchun ijaraga bera boshlaydi. Cho'llarda mavjud bo'lgan saksovul esa xonlikdagi asosiy yonilg'i manbai bo'lib, ular ham xonning shaxsiy mulki deb e'lon qilingan va maxsus “qo'riqchi”larning nazorati ostida bo'lgan. Ular shuningdek, aholidan cho'llardagi saksovulni terganlari uchun “panjiyak” deb nomlangan o'lponni yig'ib olish bilan ham shug'ullanganlar. Xonlikda mavjud bo'lgan yaylovlar esa ko'chmanchi chorvadorlarga ijaraga berilgan. Soliqlar va to'lovlar orqali Xudoyorxon o'z xazinasini yanada boyitishga harakat qilar, Qo'qon xonligini qulashi arafasida esa xon xazinasida to'plangan bo'ylikning umumiy qiymati 7 mln. Rublni tashkil etgan.<sup>3</sup> Arxiv hujjatalari sinchkovlik bilan o'rganilishi natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, Xudoyorxonning uchinchi hukmronligi davrida (1866-1875- yy.) soliqlar, o'lponlar va davlat majburiyatlari ikir-chikirlarigacha ishlab chiqilgan. Xon

<sup>3</sup> Троицкая А.Л. Каталог архива Кокандских ханов XIX века. М., Изд. «Наука».1968 г. с. 11



tomonidan shuningdek, yangi soliqlar va majburiyatlar joriy etilgan bo'lib, bularga, masalan, yarim qo'riq yerlarda yashovchilar uchun o'tin g'amlash majburiyati, hikohdan o'tganlik uchun maxsus to'lovlarni kiritish mumkin. Ungacha bu xil to'lovlar nikoh bitimlarini tuzgan qozilar tomonidan undiriladi va ularning shaxsiy daromadi hisoblanar edi. Xonlikda shuningdek, barshchnaga yaqin bo'lgan ishlab berish majburiyati ham keng qo'llanilgan. Ularning orasida sug'orish inshootlarini ta'mirlash va tozalash, "panjiyak" solig'iga tortilganlarning o'tin tashib berishi va xonning shaxsiy yerlarida qishloq xo'jalik ishlarini bajarish eng asosiylari hisoblangan. Soliqlar va mehnat majburiyatlarining butun og'irligi mehnatkash ommaning gardaniga tushar, chunki, din va davlat xizmatchilari, xo'jalar va sayyidlar, saroy ayonlari, xonning yaqin qarindoshlari ulardan ozod etilgan, harbiy xizmatchilar esa maxsus imtiyozlarga ega edilar. Qo'qon xonlarining arxivini o'zining tarkibiga ko'ra tipik xo'jalik arxivi deb ham hisoblash mumkin. Ularda yerga egalik qilish va yerdan foydalanish, ayniqsa, in'om etilgan yoki xazinaga tegishli bo'lgan yerlar, "mulki xos" yoki "amiriy" va Xudoyorxonning qo'riq yerlari, shaxsiy yerlar – "mulkiyat", beklarga taqdim etilgan yerlar, boshqa ko'chmas muklar va merosiy yerlarning taqsimlanishi bilan bog'liq nihoyatda katta materiallar keltirilgan. Davlat va jamoa yerlaridan foydalanish bo'yicha materiallar nisbatan ozchilikni tashkil etsa-da, arxiv hujjatlarini umumiy o'zganilishi natijasida ulardan foydalanishning umumiy shartlari va davlat va jamoa yerlarining asta-sekinlik bilan shaxsiy yerlarga aylanib borganligini kuzatish mumkin. Shuningdek, asosiy soliqlardan biri hisoblangan "xiroj" va yerdan foydalanganlik uchun pul solig'i sifatida olingan "tanobona" solig'i haqida ma'lumotlar ham arxiv hujjatlarida nihoyatda ko'pchilikni tashkilm etadi. Arxiv hujjatlarini o'rganish natijasida xiroj solig'ini sotib olish, ya'ni, bir yo'la to'lab yuborish, dehqonchilik mavsumi oxirida dehqonlardan yoppasiga yig'ib olish jarayoni – ijara tizimining qanday ishlaganligini ham kuzatish mumkin. Bunda mazkur tizimning ishlash tartibi va xiroj solig'idan ozod etilgan ijtimoiy toifalarning ro'yxati ham keltirib o'tilgan. Tanobona solig'ining yig'ib olishda ham xuddi shu tizimning ishlaganligini ko'rish mumkin.<sup>4</sup> Bundan tashqari arxiv materiallari soliqlardan tushgan daromadlarning xon va uning beklari tomonidan qanday sarflangani, asosan Marg'ilon hokimi Sul-ton Murodbek qo'shini va beklilik o'rdasi sarf-xarajatlari haqida ham ma'lum xulosalarni chiqarish imkoniyatini beradi. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkunki Qoqon xonligidagi soliq va majburiyatlar aholi uchun qiyinchiliklarni olib kelgan

<sup>4</sup> Троицкая А.Л. Каталог архива Кокандских ханов XIX века. М., Изд. «Наука».1968 г. с. 9



solliqlardan yig'ilgan daromatlar orqali masjid madrasa va davlat obodonchiligi yo'lida ishlatilgan. Yig'ilgan har bir soliq malum maqsad ko'zlangan holda olib borilgan. Turli xonlar zamonidagi turli soliq va majburiyatlar mavjud edi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Muhammad Aziz Marg'iloniy. Tarixi Aziziy. T., "Ma'naviyat", 1999.
2. Троицкая А.Л. Каталог архива Кокандских ханов XIX века. М., Изд. «Наука». 1968 г. с. 9
3. Плоских В. М. Киргизы и Кокандское ханство. Фрунзе, "Илим", 1977.
4. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA 12-SON ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 19.10.2022 . "QO'QON XONLIGIDA SOLIQ VA MAJBURIYATLAR" Xamidov Shukurullo Muqimjon o'g'li.
5. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. T., Sharq, 2000.
6. Джамгерчинов Б. Очерки политической истории Киргизии 19 века. Фрунзе, "Кыргызистан", 1966.

